



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 9-sinflar uchun
IV chorak O'zbekiston tarixi fanidan

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 9-sinf O‘zbekiston tarixi fanidan IV chorak taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Qo‘qon xonligida davlat boshqaruvi	1		
2.	Ijtimoiy-iqtisodiy hayot	1		
3.	Xonlikda kiyinish madaniyati	1		
4.	Ichki va tashqi savdo	1		
5.	Qo‘qon xonligida ta‘lim	1		
6.	Qo‘qon xonligi adabiy muhiti	1		
7.	Qo‘qon xonligining tashqi siyosati	1		
8.	O‘zbek davlatlarining harbiy salohiyati	1		
9.	BSB – 4. Amaliy topshiriq (50 ball)	1		
10.	Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarining harbiy salohiyati	1		
11.	Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarining harbiy salohiyati	1		
12.	Turkistonning uch xonlikka bo‘linib ketishi va uning oqibatlari	1		
13.	Siyosat maydonidagi katta o‘yin	1		
14.	O‘zbek xonliklari tarixiga oid manbalar	1		
15.	CHSB – 4. (40 ball)	1		
16.	Yakuniy umumlashtiruvchi dars	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Qo‘qon xonligida davlat boshqaruvi

Darsning maqsadi:

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga ajdodlarimiz barpo etgan ulkan madaniyat namunalaridan tortib, oddiy xo‘jalik hayotida erishgan kichik yutuqlarigacha bo‘lgan voqealar mustaqil ishlashga o‘rgatish, o‘quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, ajdodlarimizning jasorati, amalga oshirgan buyuk ishlari, qalblarida vatanparvarlik hissini uyg‘otish, Vatan manfaatlarini himoya qilishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, o‘z Vatanimiz tarixini bilishi va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatini hurmat bilan qarashi, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;
media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta‘minlash va foydalanishda mediamadaniyatga rioya qilish;
ma‘lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: kompetensiya

Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish; badiiy va san‘at asarlarini tushunish, ta‘sirlana olish;
orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me‘yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an‘analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an‘ana va marosimlarini hurmat qilish;
xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab asrash, ta‘lim muassasasida va jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e‘lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Minglar sulolasi boshqaruvi

Minglar sulolasi ham boshqaruvni o'zbek davlatchiligida mavjud bo'lgan an'analar asosida davom ettiradi. Ular ham viloyatlarni o'z sulola vakillari orqali idora etish tizimini yo'lga qo'yishga harakat qilishadi. Bu sulola davrida ham devonlar tizimi deyarli saqlanib qolmaydi. Devonlar vazifasi esa dargohdagi mansabdorlar zimmasiga yuklatiladi. Xonlikda davlat boshqaruvining oliy idorasi dargoh hisoblangan. Davlat tepasida oliy hukm Xonlikning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi. Dor - xon turgan. Minglar mang'itlar hukmronligidan ajralib chiqqan ilk paytlarda boshqaruv tizimi deyarli o'xshash edi. Lekin keyinchalik ayrim o'zgarishlar amalga oshiriladi. Buni bosh vazirlik lavozimida ko'rish mumkin. 1810-yilga qadar bosh vazir vazifasini xuddi Buxorodagidek qushbegi bajargan. Umarxon davriga kelib bu lavozim mingboshiga o'zgartiriladi. Davlat siyosatida harbiy masala ustuvor darajaga ko'tarilgani uchun shunday qilinadi. Mingboshi lavozimi egasiga lashkarboshilik vakolati ham yuklatiladi. Xonlikning uch tomonida xavfning yuzaga kelishi boshqaruvda ushbu yangilikni kiritishga sabab bo'ladi.

Boshqaruv tizimidagi yana bir o'zgarish - bu Toshkent hokimiga beklarbegi unvonining berilishi edi. Boshqaruvdagi bu islohot Muhammad Alixon davriga to'g'ri keladi. Aniqrog'i, poytaxtdan ancha uzoqda joylashgan va XIX asrning dastlabki o'nyilligida xonlik tarkibiga qo'shib olingan Toshkent va Qipchoq dashtining xonlikka tegishli hududlarini boshqarish murakkablashadi. Bu esa mazkur hududlarni boshqarish tizimiga ayrim o'zgartirishlar kiritishni talab etadi.

Shundan kelib chiqib, 1831-yili Muhammad Alixon tomonidan beklarbegi unvoni joriy qilinadi. Bu unvon faqat Toshkent hokimiga berilgan edi. Beklarbegi bir qator imtiyozlarga ega bo'lgan, jumladan, unga xonlikning shimoliy hududlaridagi Turkiston, Chimkent, Avliyoota ustidan siyosiy, iqtisodiy va harbiy nazorat qilish vazifasi topshirilgan.


Markaziy boshqaruvda iqtisodiy maaalalar bo'yicha mas'ul amaldor - devonbegi ham muhim o'rin tutgan. Mamlakat xazinasiga tushadigan mablag' va uning sarf-xarajati devonbegi nazoratida bo'lib, kirim-chiqim maxsus daftarlarda qayd etib borilgan. Markaziy boshqaruv tizimida xonlikka chet mamlakatlardan siyosiy, iqtisodiy, diplomatik maqsadlarda kelgan elchilarni kutib olish, ularni joylashtirish va xonlikdagi faoliyatiga javobgar bo'lgan shig'ovul, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan dasturxonchi, moliya vazirining yordamchisi mehtar, xonning xos va sirdosh mulozimi inoq hamda otaliq kabi mansabdorlar faoliyat yuritishgan. Shuningdek, markaziy boshqaruv tizimidagi eng oliy diniy mansab - shayxulislom, sudlov va huquq-tartibot ishlariga mas'ul - qozikalon, fiqh olimi - xojakalon, harbiy ishlar qozisi - qozi askar lavozimlari mavjud bo'lgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Bu davrda Xiva va Buxoroda davlat boshqaruvi qanday edi?
2. Davlat mustaqilligi uchun uning boshqaruvida qanday lavozimlar bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?
3. Monarxiya deganda nimani tushunasiz? Monarxiya necha turga bo'linadi?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.



1709–1876-yillarda davlat ramzi bo'lgan Qo'qon xonligi bayrog'i

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: darsda XV asrgacha sodir bo'lgan voqealar bilan tanishtirish, jumladan, Vatanimiz tarixida muhim rol o'ynagan Birinchi va Ikkinchi Renessansga asos bo'lgan jarayonlarni o'rganish. Tariximizni o'rganish mobaynida, qalblarida faxr va iftixor tuyg'ularini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga ajdodlarimiz barpo etgan ulkan madaniyat namunalaridan tortib, oddiy xo'jalik hayotida erishgan kichik yutuqlarigacha bo'lgan voqealar mustaqil ishlashga o'rgatish, o'quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, ajdodlarimizning jasorati, amalga oshirgan buyuk ishlari, qalblarida vatanparvarlik hissini uyg'otish, Vatan manfaatlarini himoya qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, o'z Vatanimiz tarixini bilishi va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatini hurmat bilan qarashi, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish; media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda mediamadaniyatga rioya qilish; ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Yer-suv munosabatlari

Farg‘ona vodiysida dehqonchilik qadimdan rivojlanib kelgan. Vodiy aholisi g‘allachilik, bog‘dorchilik, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish hamda ipakchilik bilan shug‘ullangan. Donli ekinlardan jo‘xori yetishtirish keng tarqalgan bo‘lib, u shahar va qishloqlarda kambag‘allarning asosiy iste‘mol mahsuloti hamda chorva ozuqasi edi. Shuningdek, XIX asrga kelib xonlikda paxtachilik sohasiga ham katta e‘tibor berilishi natijasida paxta ekiladigan maydonlar hajmi to‘xtovsiz kengayib boradi.

Farg‘ona vodiysi g‘arbiy qismining tabiiy sharoiti bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish uchun juda qulay bo‘lgan. Vodiyning janubi-g‘arbidagi Xo‘jand, Konibodom, Isfara, So‘x, Chimyon, Rishton hududlari asosan o‘rik yetishtirishga ixtisoslashgan. Bu davrda butun Farg‘ona vodiysida tut daraxti keng tarqalib, tog‘oldi va qadimgi dehqonchilik vohalari hisoblangan So‘x, Isfara, Namangan, Ashtda ipakchilikni yanada rivojlantirish maqsadida tut daraxtlari soni nihoyatda ko‘paytirilgan.

Xonlikda yerga egalikning to‘rt turi mavjud edi. Bular: mulk yerlari; davlat yoki amlok yerlari -xonga qarashli yerlar, o‘rmonlar, to‘qaylar; xususiy yerlar - xonning maxsus yorlig‘i bilan harbiylarga berilgan yerlar; vaqf yerlari - diniy muassasalarga, ya‘ni masjid, madrasa, maktabxona, xonaqoh, mozorlarga qarashli yerlar. Bundan tashqari, “mulki huri xolis” yerlari ham bo‘lgan. Amlok xon ixtiyoridagi yer bo‘lib, u zamini xos deb ham yuritilgan va undan keladigan barcha daromad xonning ixtiyorida bo‘lgan. Bunday yerlar xon tomonidan yirik dehqonlarga ijaraga berilgan. Yerni olgan kishi uni o‘z hisobidan sug‘orib, olgan hosildan xazinaga soliq to‘lagan va uning miqdori hosilning 1/5 qismini tashkil qilgan.

XIX asrda sug‘orish tizimida yangi davr boshlanadi. Yirik sug‘orish inshootlari, katta-kichik ariqlar, to‘g‘onlar qurila boshlaydi. Masalan, Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan bo‘lgan Norin va Qoradaryodan suv oladigan Shahrixonsoy arig‘i, Namangan yangi arig‘i, Chinobod arig‘i, Andijonsoy va boshqa sug‘orish tarmoqlarining qazilishi Farg‘ona vodiysida sug‘orish tarmoqlarining ko‘payishiga, sug‘oriladigan yer maydonlarining sezilarli darajada kengayishiga hamda dehqonchilik va bog‘dorchilikning rivojlanishiga olib keladi. Olimxon hukmronligi yillarida Farg‘ona vodiysining janubiy hududlaridagi suv ta‘minotini yaxshilash uchun So‘x daryosida oltita ariq qaziladi. 1800-1803-yillarda Namangan viloyatida yangi yerlarni o‘zlashtirish uchun Norin daryosidan suv oluvchi Yangiariq arig‘i qaziladi. 1819-yilda Umarxon farmoni bilan Yangiariq arig‘i yana uzaytirilib, uning uzunligi 120 chaqirimga yetkaziladi. 1868-1871-yillarda qurilgan Ulug‘nahr arig‘i Farg‘ona vodiysidagi eng katta sug‘orish arig‘i bo‘lib qoladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Farg‘ona vodiysida qadimdan dehqonchilik va hunarmandchilikning qaysi sohalarini rivojlangan edi? Bugungi kunda ulardan qaysi birlari hamon mashhur?
2. Hunarmandchilikning yangi sohalarining ochilishiga qanday omillarsabab bo‘ladi?
3. Bu davrda dunyo mamlakatlarida qanday kasblarga ehtiyoj yuzaga kelgan edi?

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

34 listdan iborat 9-sinf O'zbekiston tarixi fanidan IV chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**